

G'ARB FALSAFASI TARIXI VA RIVOJLANISHI

Olimova Maftuna Baxtiyorxon qizi

Nurimova Laylo Samadillo qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Filalogiya fakulteti,

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabalari

maftunaolimova681@gmail.com

nurimovalaylo81@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'arb falsafasi tarixi, uning rivojlanishi, turli dunyoqarashlarning kelib chiqishi, faylasuflarning fikrlari va olib borgan izlanishlari, Antik davr falsafasi. Fales, Parmenid, Anaksimandr, Foma Akvinskiy, Avreliy Avgustin kabi faylasuflarning falsafiy ta'limotlari haqida bir qancha ma'lomatlarni topishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Antik davr, Ellinizm, Xristianlik, Falsafiy ta'limot, "Tavba" asari, "Doktor angelikus"

Annotation: This article discusses the history of Western philosophy, its development, the origin of various worldviews, the thoughts and research of philosophers, the philosophy of antiquity. You can find as much information as we can about the philosophical teachings of philosophers such as Thales, Parmenides, Anaximander, Thomas Aquinas, and Aurelius Augustine.

Keywords: Antiquity, Hellenism, Christianity, Philosophical teaching, "Repentance", "Doctor Angelicus"

Аннотация: В этой статье история западной философии, ее развитие, возникновение различных мировоззрений, мысли и исследования философов, философия античности. Сколько информации мы можем найти о философских учениях таких философов, как Фалес, Парменид, Анаксимандр, Фома Аквинский, Аврелий Августин.

Ключевые слова: Античность, эллинизм, христианство, философское учение, «Покаяние», «Доктор Ангеликус».

Insonlar tomonidan ko'rib chiqilgan va yaratilgan bilimlar orasida Falsafa faniga aloqador bilimlar, tadqiqotlar, buyuk faylasuflarning bitmas meroslari va asarlari katta ahamiyatga ega. O'z davrining mashhur faylasuflari fan rivoji

uchun ulkan hissa qo'shganlar. Falsafa fani esa ulkan bilimlar manbaini o'z ichiga oladi. Uzoq o'tmishdan beri insonlar ongida 'olam va odam nima?', ular bir birlari bilan qanday bog'liq?', 'voqeliklar qanday o'zgaradi va taraqqiy topadi?' degan savollar yotadi. Falsafa fani esa manashu masalarnio'z ichiga oladi va o'rganadi. Bu fan juda qadimiy hisoblanib, o'zida ulkan bilimlarni mujassamlashtiradi. Fanning asosiy vazisafi esa inson ongoda sog'lom dunyoqarashni shakllantirishdir. Fanni o'rganish davomida olam va odam o'rtasidagi munosabat, turli xil dunyoqarashlar, dolzarb muammolarni hal etish, falsafiy g'oyalar va bilimlarni tahlil qilib, o'zimiz uchun kerakli bo'lgan malakalarni egallashimiz mumkn. Falsafa fanini ham o'z navbatida bir necha guruhlarga bo'lib bo'lib o'rganamiz. Sharq va G'arb falsafasi shular jumlasidandir.

Tahlil va natijalar.

G'arb falsafasi ya'ni Qadimgi Yunon-Rim Falsafa tarixini Antik davr deb ham ataymiz va bu davr miloddan avvalgi VI va milodiy VI asrlar oralig'ini qamrab oladi. Antik davr falsafasida Geraklit, Demokrit, Platon, Aristotel, Epikurlarning falsafiy, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-axloqiy ta'limotlari yetakchi o'rin egallaydi. Antik davr falsafani 4 bosqichga bo'lib o'rganamiz. 1) Yunon falsafasi shakllana boshlagan ilk davrlardan Mil. Avv. IV asrgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga qamrab oluvchi "suqrotgacha bo'lgan davr"; 2) Mil. Avv. V asrdan mil.avv. IV asrning o'rtalarigacha davom etgan "mumtoz davr" bu davrda Suqrot, Aflotun, Arastularning ijodi vujudga kelib, keng tarqaldi; 3) Mil. Avv. IV asr oxirlari va mil. avv. II asr oralig'ida rivoj topgan ta'limotlarga nisbatan Ellin falsafasi atamasi qo'llaniladi; 4) Mil. avv. II asr oralig'ida taraqqiy topgan antik donishmandlik Rim davri deb ataladi. Antik davr falsafasi qadimgi Yunon-Rim faylasuflari mahsuli hisoblanadi. G'arb falsafasi tafakkur taraqqiyotining keying davrlarida paydo bo'lgan falsafiy maktablar, tasavvurlar, katogoriya va muammolar uchun ilk ildiz vazifasini Antik davr falsafasi jahon falsafasi sivilizatsiyasi rivojida katta rol o'ynagan. Qadimgi Yunon falsafasi ilohiy bilimlar, mifologiya, san'at bilan uzviy bog'liqlikda rivojlandi. U davrda mifologiya falsafaning g'oyaviy manbai, material vazifasini o'tagan. Faqat ellinistik davrda, ya'ni milodimizdan avvalgi III asrda bir necha sohalar, avvalo matematika va tibbiyot fanlariga oid bilimlar alohida ajralib chiqa boshladi. Miloddan avvalgi VIII-VI asrlarda Kichik Osiyo, O'rta dengiz qirg'oqlaridagi Milet va Efes shaharlari Sharq hamda G'arb xalqlari o'rtasida savdo, iqtisodiy, madaniy munosabatlarda muhim rol o'ynadi. Shuning

uchun ham, ilk yunon falsafasi aynan Milet va Efes shaharlarida shakllana boshladi. Antik davr falsafasi miloddan avvalgi VII va VI asrlar oralig'ida Yunonistonning Milet shahrida paydo bo'lgan. Fales va Anaksimandir Milet maktabi faylasuflari hisoblanadi va ularni Ioniyalik Faylasuflar deb ham atashahdi. Yunon falsafasining asoschisi Fales miloddan avvalgi 624-547-yillarda yashagan bo'lib, u matematika, astronomiya, meteorologiya, fizika ilmlari taraqqiyotida ko'p xizmat qildi. : Qadimiy Yunonistonda «yetti dononing biri» hisoblanib shuhrat qozongan Fales Misrdagi bilim va tajribani o'rganib, elementar geometriyani asoslagan. Bobilliklarning astronomik tasavvurlariga asoslanib, Quyosh tutilishini hisoblash usulini ishlab chiqdi va tushuntirib bergan. Lekin u Yerga boshqa samoviy jismlarga nisbatan eng yaqin – yulduzlar, eng uzoq - Quyosh joylashgan, degan xato tasavvurga ega bo'lgan. U borliqning negizini suv tashkil etadi, deb hisoblagan. Chunki u suvning o'simliklar, hayvonot va insoniyat hayotida hal etuvchi ahamiyatini yaxshi tushungan. Fales dengizning kema, savdo-sotiq ishlari, daryo, masalan, Nilning, dehqonchilikdagi muhim ahamiyatini kuzatar, mushohada etar ekan, ayniqsa, yomg'irning hayotbaxsh xislati uni hayratga solgan. Shuning uchun u hamma narsa suvdan paydo bo'ladi va hamma narsa yana suvga qaytadi degan g'oyani ilgari surgan. Fales fikricha, suv – aqlli va “ilohiydir”. Dunyoda ruhlar, xudolar ko'p. Hamma mavjud narsalar ruhga ega. Uning gilozoizmi shundan iborat bo'lgan. Aynan xudo va ruhlar harakatning manbai hisoblanadi, chunki ular dunyoni harakatga keltiradilar, masalan, magnit ruhga ega, chunki u tyemirni o'ziga tortadi. Yer – suvda suzib yuradi, Quyosh va boshqa samoviy jismlar suvning parlanishidan ozuqa oladilar. Fales dunyoqarashiga o'sha davrda mavjud afsonalar ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ioniyalik faylasuflardan yana biri Anaksimandr bo'lib, miloddan avvalgi 610-546-yillarda yashagan. Anaksimandr ko'p dunyolar bor deb taxmin qilib, hayvonlarni quyosh ta'sirida namlikdan kelib chiqqan deb tushuntirishga uringan. Dastlabki hayvonlar avvalo suvda yashagan, so'ngra quruqlikka chiqib, hayot tarzini o'zgartirgan, deb faraz qilgan. U inson baliqdan paydo bo'lgan, degan fikrni ilgari surgan. Anaksimandr quyosh soatini ixtiro qilib, gnomon nomli astronomik asbob yasagan, osmon sferasi doirasi modelini tuzgan hamda birinchi bo'lib Yunonistonning geografik xaritasini chizgan. Chuqur fikr egasi Anaksimandr hamma narsalarning boshlanishi «apeyron», ya'ni umumiy gazsimon modda, deb hisoblagan. U Fales, Anaksimen kabi muayyan moddani emas, balki umumiy «apeyron»ni barcha ashyolarning o'zagi deb hisoblagan.

Anaksimandrning ushbu fikri falsafiy tafakkur rivojida muhim qadam edi. Anaksimandrning apeyroni abadiy, doimo yosh, umumiy, cheksiz ibtidodir. Apeyrondan ikki bir-biriga zid juftliklar ajralib chiqadi: issiq va sovuq, namlik va quruqlik; ularning turli me'yoriy qo'shilishidan to'rt asosiy stixiyalar tug'iladi: Havo, Tuproq, Suv va Olov, bulardan butun dunyo tashkil topadi. Anaksimandr G'arb falsafasi rivoji uchun "Tabiat haqida", "Yer xaritasi", va "Globus" asarlarini yaratgan. Antik davr falsafasi taraqqiyoti uchun ulkan hissa qo'shgan faylasuf bu Parmeniddir. U Eley maktabi asoschisi hisoblanadi. Uning fikricha, yakkayu yagona borliq mavjud, bu borliq yaratilmagan, yo'q ham bo'lmaydi, o'zgarmaydi ham. Borliq olamning markazida harakatsiz joylashgan. U yaxlit sharsimon massadan iborat. Uning olam to'g'risidagi bunday tasavvuri borliqning moddiyligidan dalolat beradi. Parmenid uchun borliq va tafakkur aynan bir narsa. Uning fikricha, aql harakatsiz, o'zgarmas narsalarni biladi, shuning uchun ham haqiqiy bilim manbai bo'lishi mumkin. Shunday qilib, u qadimgi Yunonistonda metafizika va ratsional falsafaga asos soldi. F. Copleston fikricha, Ksenofan haqida qanday o'y-fikrga kelmaylik, falsafiy jihatdan ham, tarixiy jihatdan ham olib qaraganimizda, shubhasiz, Eleylik Parmenid Eley maktabining haqiqiy asoschisidir.¹ Suqrot miloddan avvalgi 470 – 399 yillarda yashagan va o'zigacha yashab ijod qilgan mutafakkirlardan farqli ravishda birinchi marta inson va uning hayoti bilan bog'liq muammolar, xususan, qanday yashash va qanday fikrlash lozimligi masalasiga diqqat qaratdi. Quyosh va oyning tutilishi, meteoritning tushishi kabi hodisalarni o'rganadigan tabiat falsafasi insonning qanday yashashi va fikrlashi lozimligi haqida bilim bermasligini ta'kidlagan mutafakkir insonning o'z-o'zini anglashga intilishini haqiqiy bilim deb hisoblaydi. Uning o'z-o'zini angla degan hikmati ayni mulohazaning isboti bo'la oladi. Suqrot moddiy olam va narsalar dunyosini bilish imkonsiz, shuning uchun nazariy emas, balki amaliy yashash san'atini o'rganish lozimligi g'oyasini ilgari suradi. Suqrotning umri mobaynidagi faoliyati bahslarda kechgan. U monologda bir yoqlama xato fikrlar bayon qilinadi deb hisoblaydi. Suqrot haqiqatni bilishning mayevtika usulini kashf etdi. Unga ko'ra predmet haqidagi qarama-qarshi fikrlarning o'zaro to'qnashuvi haqiqatga olib boradi. Bahs jarayonida yuzaga keladigan bir predmet haqidagi o'zaro qarama-qarshi mulohazalar yangi savollar qo'yish yo'li bilan bartaraf qilib boriladi. Suqrot axloq va ezgulikni bilim bilan aynanlashtiradi. Aniqrog'i, nima yaxshi va nima yomonligini bilgan inson ahmoqona ishlarni qilmasligini

¹ Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-TorontoSydney-Auckland, 2003. p. 201.

ta'kidlaydi. Suqrot insonni ijtimoiy kosmosni aks ettiruvchi mikrokosmos sifatida tasavvur qiladi. bu kosmos esa inson tomonidan anglangan bo'lmog'i lozim. Suqrotning axloq falsafasi ratsionalistik xususiyat kasb etadi. Unga ko'ra har qanday bema'ni hatti-harakat bilimsizlik mahsuli sanaladi. Ellinizm davri miloddan avvalgi IV asrning oxiri – miloddan avvalgi I asrning boshi oralig'ini o'z ichiga oladi. Bu davr Makedoniyalik Aleksandrning sharqqa yurishlari natijasida yunon madaniyati va Sharq madaniyatlarining o'zaro ta'siri bilan ajralib turadi. Ellinizm davrida san'at, adabiyot, falsafa va ilm-fan sohalarida yirik yutuqlarga erishilgan. San'at sohasida bu davrda realizm va dramatizmga urg'u berilgan. Haykaltaroshlikda inson his-tuyg'ularini chuqur aks ettiruvchi asarlar yaratilgan. Masalan, "Laokoon va uning o'g'illari" haykali shu davrga oid bo'lib, unda inson azobi va kurashi mahorat bilan tasvirlangan. Ellinizm davri teatrida yangi attika komediyasi rivojlangan bo'lib, bu janrning asosiy vakillaridan biri Menandr hisoblanadi. Uning asarlari orqali jamiyatning turli qatlamlari va insoniy munosabatlar hajviy tarzda yoritilgan. Falsafa sohasida stoitsizm, epikureizm kabi oqimlar shakllangan. Stoiklar taqdirdan qochib qutulib bo'lmashligini va insonning o'z his-tuyg'ularini boshqarishi kerakligini ta'kidlaganlar. Epikureylar esa hayotning maqsadi huzur-halovatga erishish deb bilganlar. Ilm-fan sohasida esa matematika, astronomiya va geografiya kabi fanlar rivojlangan. Masalan, Evklid geometriya asoslarini yaratgan bo'lsa, Arximed mexanika va gidrostatika sohalarida muhim kashfiyotlar qilgan. Ellinizm davri madaniyati keyinchalik Rim imperiyasi va butun Yevropa madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ushbu davrda yaratilgan asarlar va g'oyalar hozirgi zamon san'ati, adabiyoti va fanining rivojlanishiga zamin yaratgan. Avreliy Avgustindir (354-430-yillar). Uning "Tavba" asari hamda Possidyumning unga bag'ishlangan biografik asarlari Avgustin haqidagi ma'lumotlarning asosiy manbai sanaladi. Avreliy Avgustin 354-yil 13-noyabrda Afrikaning Tagast shahridagi rimliklar oilasida tavallud topgan. U uncha badavlat bo'lmagan, biroq nufuzli va ma'rifatli oilada voyaga etadi. U boshlang'ich bilimlarni Tagast va qo'shni shahar Madavrda oladi. O'g'lining an'anaviy lotin mumtoz adabiyotidan tahsil olishi va notqlik san'atini egallashini istagan otasi Avreliyni 370-yilning kuzida mahalliy oliy ta'lim markazi bo'lgan Karfagen shahriga yuboradi. 384-yilda Avgustin Mediolan shahriga ko'chib o'tadi. Bu erda u mashhur xristian ilohiyotchisi va namoyandasi mediolanlik Amvrosiy (340-397 yillar) bilan uchrashadi va bu uchrashuv uning hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Aynan mediolanlik

Amvrosiy bilan uchrashgan vaqtlarda Avgustin falsafa bilan mashg'ul bo'lib, falsafani skeptitsizm hamda moniychilikdan afzal degan fikrda edi. O'z-o'zini taftish etish va cho'qintirilishga hozirlik ko'rish maqsadida onasi va yaqin do'stlari hamrohligida u Mediolan yaqinidagi joy - Kassiatin deb atalgan yer mulkiga ko'chib o'tadi. 386-yili, qariyb yarim yil mobaynidagi do'stlari bilan yozishmalari natijasida Avgustin o'zining ilk falsafiy asarlari: "Akademiklarga raddiya", "Tartibot haqida", "Farovon hayot haqida", keyinchalik "Ruhning abadiyligi haqida" dialoglarini hamda "Monolog" nomli asarlarini nihoyasiga yetkazadi. 387-yilning bahorida Mediolan shahriga qaytgach, u Amvrosiy tomonidan cho'qintiriladi. 387-yili onasining o'limidan so'ng boshiga tushgan kulfatga qaramay, Rimga yo'l olib, u yerda "Erkin tanlov haqida" dialogini hamda "Moniyar axloqi" deya nomlangan traktatini yozadi. Ehtimol, aynan shu vaqtlar uning ko'nglida kelajakdagi hayotini cherkov xizmatiga bag'ishlash istagi tug'ilgan bo'lsa ajab emas. 388-yilning kuzida u Tagast shahriga qaytadi va meros qolgan uyini sotib, pulini kambag'allarga ulashadi. Do'stlari bilan zohidona hayot kechirishi uchun esa boshpana sifatida kichkina bir uyni olib qoladi. Tagastda yashagan paytlarida "Ustoz haqida", "Musika haqida", "Moniyar axloqi" kitobining ikkinchi jildi, "Ruhning miqdori haqida" kabi asarlarini yozadi hamda dialog uslubida yozilgan "Erkin tanlov haqida" traktati ustida keng qamrovli ishlarini davom ettiradi. Asta-sekinlik bilan Avgustin Tagast va uning atrofidagi shaharlarda shuhrat qozona boshlaydi. 390-yilning oxirida Gippon shahri aholisining iltimosiga bilan episkop Valeriy Avgustinni ziyorat qiladi va o'z navbatida, Avgustin ham Gippon shahriga mehmon bo'ladi. Avgustin 395-396-yilning qishida og'ir xastalikdan vafot etgan Valeriyning o'rniga Gippon shahri episkopligi lavozimini qabul qiladi. U umrining oxirigacha shu lavozimda faoliyat ko'rsatadi. Avgustin episkoplikning birinchi yilida muhim asarlaridan biri "Xristian dini haqida" traktati ustida ish boshlaydi hamda moniylikka qarshi ruhdagi "Favstamoniylikka raddiya" asarini yakunlaydi. Aql haqiqiy borliqning asosiy xarakterli jihati – bu uning o'zgarmasligidir. Avgustinga ko'ra, xudo mutlaq yakkalik bo'lib, "Troitsa" – "Uchlanganlik" esa uning turli holda namoyon bo'lishidir. U substansional birlik bo'lib, bir vaqtning o'zida uch qiyofada aks etadi. Foma Akvinskiy (1225-1274) o'rta asr Yevropa falsafasining yirik vakili bo'lib, uning g'arb falsafasiga qo'shgan hissassi juda katta. U "Doctor angelikus" yani farishta doctor nomi bilan ham mashhur. U Aristotelning shakl va materiya haqidagi asosiy g'oyalaridan foydalanib, din ta'limotini ularga moslashtirdi. Uning

fikriga ko'ra, materiya shaklsiz mavjud bo'lmaydi, shakl esa oliy shaklga yoki "shakllarning shakli" — Xudoga bog'liqdir. Bu yondashuv orqali u Aristotel falsafasini xristianlik bilan uyg'unlashtirdi. Foma Akvinskiy tomonidan ishlab chiqilgan tomizm ta'limoti, XX asrga kelib, neotomizm nomi bilan yana mashhur bo'ldi. Bu ta'limot xristian ilohiyotining asosiy printsiplarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, oliy borliq — Xudoning mavjudligini asoslashga intiladi. U din va aql uyg'unligi tamoyiliga asoslangan obyektiv idealistik falsafiy tizimni yaratdi. Tabiiy borliqning va inson aql-idrokining nisbiy mustaqilligini e'tirof etib, tabiiy huquq konsepsiyasini ilgari surdi. Foma Akvinskiy Xudoning mavjudligini isbotlash uchun besh asosiy dalilni ilgari surdi. U harakat tushunchasidan kelib chiqib, har bir harakatning birinchi harakatlantiruvchisi Xudo ekanligini ta'kidlagan. Uning bu yondashuvlari g'arb falsafasida din va aql o'rtasidagi munosabatlarni muhokama qilishda muhim o'rin tutadi va uning ta'limoti hozirgacha katolik cherkovining rasmiy doktrinasida katta ahamiyatga ega.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni kadidlash lozimki G'arb falsafasi taraqqiyoti va rivojlanishi yo'lida ko'p faylasuflar harakat qilganlar va izlanishlar olib borganlar. Fales, Parmenudkabi faylasuflarning ochgan Falsafiy maktablari antik davr falsafasi rivoji uchun eshiklarni ochib berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Qolgan bir qator buyuk faylasuflarning mulohazalari va yaratgan asarlari biz va kelajak avlod uchun G'arb falsafasining kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi bilimlarga ega bo'lishimizga katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR\

1. D.A.Po'latov, G.M.Ro'zmatova -G'arb falsafasi tarixi – 2017-yil Toshkent
2. Yo'ldoshev S. Antik davr falsafasi. –T.Universitet, 1998.
3. Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-TorontoSydney-Auckland, 2003.
4. Yorqin Turopov- Qadimgi yunon va Rim madaniyati. Toshkent 2013- yil
5. Edward Reser - Aquina. Oneword Publication 2009- yil
6. N.Mamatov A.Hojiboyev Sh.Jo'rayev –Sharq va G'arb falsafasi – Toshkent 2005-yil

7. Aralovna, Ochilova Guzal, et al. "Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes." *Journal of Survey in Fisheries Sciences* 10.1S (2023): 5000-5006.

8. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.

9. Omonov, Bakhodir Nurillaevich, Go‘zal Aralovna Ochilova, and Sitora Ayonovna Azamova. "SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN." *World of Scientific news in Science* 1.3 (2023): 15-28.

10. Ayonovna, Azamova Sitora. "The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization." *Global Scientific Review* 13 (2023): 7-10.

11. Ayonovna, Azamova Sitora, and Pirimov Lerik Xudoyberdi o‘g‘li. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘." *TADQIQOTLAR. UZ* 40.4 (2024): 135-139..

12. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35..

13. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.

14. Azamova S. EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.

15. FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749